

AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARI TOMONIDAN UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYA KONSEPSIYASINI AMALGA OSHIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Abduraxmonova Yulduzxon Naimjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

*Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti*

Email: abduraxmonovayulduz073@gmail.com, 902789072

Ilmiy rahbar: Pedagogika fanlar doktori PhD., dotsent

Maxmudova Nodira Alisherovna

Annotatsiya. Maqolada axborotlashgan jamiyat sharoitida boshlang'ich sinflar o'qituvchilari tomonidan uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirishning pedagogik imkoniyatlari o'rganiladi. Axborot texnologiyalari va zamonaviy ta'lim muhitining ma'naviy tarbiya jarayoniga ta'siri tahlil qilinadi. Boshlang'ich sinflar o'qituvchilarining axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda o'quvchilarda axloqiy qadriyatlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usini shakllantirishdagi roli ko'rib chiqiladi. Shuningdek, uzluksiz ma'naviy tarbiyani ta'minlashda o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalari, innovatsion pedagogik yondashuvlar va ta'lim jarayonida axborot resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari muhokama qilinadi. Maqola axborotlashgan jamiyatda ma'naviy tarbiyani rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar. Axborotlashgan jamiyat, boshlang'ich sinflar, ma'naviy tarbiya, uzluksiz tarbiya, pedagogik imkoniyatlar, axborot texnologiyalari, o'qituvchi kompetensiyasi, axloqiy qadriyatlar, innovatsion yondashuvlar.

PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF IMPLEMENTING THE CONCEPT OF CONTINUOUS SPIRITUAL EDUCATION BY PRIMARY GRADE TEACHERS IN THE CONDITIONS OF AN INFORMATION SOCIETY

Abstract. The article explores the pedagogical possibilities of implementing the concept of continuous moral education by primary school teachers in the conditions of an information society. The impact of information technologies and the modern educational environment on the moral education process is analyzed. The role of primary school teachers in fostering ethical values, national and universal values, and a sense of social responsibility in students through the use of information and communication tools is examined. Additionally, the professional competencies of teachers, innovative pedagogical approaches, and the possibilities of effectively using information resources in the educational process to ensure continuous moral education are discussed. The article concludes with practical recommendations aimed at developing moral education in an information society.

Keywords. *Information society, primary school, moral education, continuous education, pedagogical possibilities, information technologies, teacher competency, ethical values, innovative approaches.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РЕАЛИЗАЦИИ КОНЦЕПЦИИ НЕПРЕРЫВНОГО ДУХОВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ УЧИТЕЛЯМИ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В УСЛОВИЯХ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА

Аннотация. *В статье исследуются педагогические возможности реализации концепции непрерывного нравственного воспитания учителями начальных классов в условиях информационного общества. Анализируется влияние информационных технологий и современной образовательной среды на процесс нравственного воспитания. Рассматривается роль учителей начальных классов в формировании у учащихся этических ценностей, национальных и общечеловеческих ценностей, а также чувства социальной ответственности с использованием информационно-коммуникационных средств. Кроме того, обсуждаются профессиональные компетенции учителей, инновационные педагогические подходы и возможности эффективного использования информационных ресурсов в образовательном процессе для обеспечения непрерывного нравственного воспитания. Статья завершается практическими рекомендациями, направленными на развитие нравственного воспитания в информационном обществе.*

Ключевые слова. *Информационное общество, начальная школа, нравственное воспитание, непрерывное воспитание, педагогические возможности, информационные технологии, компетенции учителя, этические ценности, инновационные подходы.*

KIRISH

Bugungi kunda biz huquqiy demokratik davlat va fuqorolik jamiyati asoslarini qurishga dadil kirishdik. Bunday sharoitda yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Bugungi shidatli zamonda yoshlar oldidda yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitida biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo'lga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim".[1]

Bugun shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda globallashuv jarayonlarining ijobiy tomonlari bilan bir qatorda, uning salbiy oqibatlar ham hayotimizga kirib kelmoqda. Shu ma'noda turli ma'naviy tahdidlardan hayotimizni asrash, ma'naviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik uchun, avvalambor, sog'lom g'oyalar orqali, jahon maydonida yuz berayotgan keskin aql-zakovat va iste'dod musobaqasida bellashuvga qodir bo'lishimiz lozim. Bunday bellashuvga kirishadigan shaxsning nafaqat bilimi, balki uning axloqiy qarashlari yuqori darajada shakllangan bo'lishi lozim. Dunyodagi har bir xalqning tili, xarakteri va tafakkur-tarzi turli bo'lgani kabi milliy xulq-atvori, odob-axloqi, muomala madaniyati, urf-odatlar ham farqlidir. Lekin umuminsoniy ahamiyatga molik bo'lgan mehr-muhabbat, sharm-hayo, rahm-shavqat, hurmat-izzat va qadr-qimmat degan tuyg'ular borki, bu barcha xalqlar uchun birdek go'zal fazilat hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda, odob millat tanlamaydi. Chunki, odob – inson haqida yoqimli taassurot uyg'otadigan, shuningdek, jamoa, milliy urf-odatlarga asoslangan go'zal xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi. Bu xatti-harakatlarning barchasi insonni ezgu ishlarga, bunyodkorlikka yetaklaydi.

Davlatimiz birinchi rahbari Islom Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq "Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'lim va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak", deya ta'lim xodimlari oldiga vazifa qo'ygan edi. [2]

Darhaqiqat, tarbiya haqida gapirar ekanmiz, u inson ma'naviyatning ko'zgusidir. Buyuk tarixga ega bo'lgan xalqning ma'naviyati ham buyuk bo'ladi. Chunki buyuk ma'naviyatga ega bo'lmagan xalq, buyuk kelajak yaratolmaydi. Demak, ma'naviyat insonning barcha qarashlarining mezonidir. Shu o'rinda shaxsning ma'naviyatini shakllantirishda tarbiyaning o'rniga to'xtalish lozimdir. Tarbiya insonni inson qiladigan azaliy qadriyatdir. Aslida, ta'lim ham, tarbiya ham ong mahsulidir, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni yuksaltirib bo'lmaydi.

Qomusiy olimlarimizdan Al-Xorazmiyning ilmiy bilimlar sohasidagi kashfiyotlari, Abu Nasr Farobiyning fozil inson haqidagi ta'limoti, Abu Rayhon

Beruniyning ilmiy bilish yo'llari, ilm-hunarni egallash, axloqlilikning belgilari va uni tarkib toptirishga oid qarashlari, Abu Ali ibn Sinoning aqliy, axloqiy, jismoniy kamolotga oid qarashlari barkamol inson tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Shu sababdan milliy qadriyatlarimiz, xususan, "Avesto", mutafakkirlarimiz Imom Buxoriy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiyning tarbiya sohasiga oid boy merosini o'rganish va hayotiy faoliyatiga aylantirish o'quvchi-yoshlarimizning vazifasidir.

Umuman olganda, bunday faoliyat asosida insonning kamoloti ilm-fanni egallab, yuksak axloqqa erishgandagina namoyon bo'ladi degan g'oya yotadi.

Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida ta'kidlaganidek, Bolaning yetuk tarbiya topishida ijtimoiy muhit, oilaning o'rni, shuningdek, sog'lom insonni tarbiyalash, tafakkurini rivojlantirish, o'quvchini fikrlashga o'rgatish, yanada muhimi – axloq tarbiyasi – yaxshi xulq va odatlarni tarkib toptirish bugungi kunda dolzarb masalalardan hisoblanadi.[3]

Axborotlashgan jamiyat sharoitida ta'lim tizimi oldida yangi imkoniyatlar va muammolar paydo bo'lmoqda. Texnologik rivojlanish, axborot oqimining ko'payishi va globallashuv jarayonlari yosh avlodning ma'naviy-axloqiy shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarda mustahkam ma'naviy asoslarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu maqola axborotlashgan jamiyat sharoitida boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan ushbu konsepsiyani amalga oshirishning pedagogik imkoniyatlarini ko'rib chiqadi. Axborotlashgan jamiyat zamonaviy ta'lim tizimiga yangi talablarni qo'ymoqda. Bu davrda axborot texnologiyalari ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylandi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar yosh avlodning dunyoqarashini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Biroq, axborot oqimining ko'pligi va uning nazoratsiz tarqalishi o'quvchilarda noto'g'ri qadriyatlar va axloqiy me'yorlarning shakllanishiga olib kelishi mumkin.

O'qituvchilar axborotlashgan jamiyatning ijobiy va salbiy ta'sirlarini muvozanatlash orqali o'quvchilarni to'g'ri yo'naltirishi kerak. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi bu jarayonda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Shaxs ma'naviyatini rivojlantirishda ham, barkamol inson voyaga yetkazishdahan ularning ham ma'naviy-axloqiy tarbiyalash muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya shaxsdagi bundyodkorlik, tashabbuskorlik ijodkorlik, tadbirkorlik g'oyalarining yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydigan: yetuklikka, komillikka yetaklaydigan, aniq maqsadni o'zida mujassam etgan jarayon hisoblanadi. Barkamol shaxs, komil inson aql-zakovatli, axloq-odobli, iqtidorli, bilim saviyasi yuqori, zukko, ishbilarmon, tadbirkor, tashabbuskor, kishilardir. Huquqiy demokratik davlat va fuqorolik jamiyatini aql-zakovati past, sayoz bilimli, ishning ko'zini bilmaydigan, o'zgalarni o'ziga ergashtira olmaydigan, tashabbussiz, ma'naviy-axloqiy saviyasi sust kishilar qurib bo'lmaydi. Zero, o'zbek tarbiyashunosligining asoschisi, buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniy aytilganidek: "Alhosi, tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir". [4]

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1059-son qarori (2019) va Prezidentning "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4307-son qarori (2019) uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimining huquqiy asoslarini belgilaydi. Ushbu hujjatlar tarbiya jarayonida ota-onalar, pedagoglar va mahalla jamoatchiligi o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratgan.

Babanskiy Yu.K. tomonidan ishlab chiqilgan tarbiya metodlari klassifikatsiyasi shaxsning ongiga, xulqiga va hissiyotiga ta'sir etishga qaratilgan metodlarni ajratib ko'rsatadi. Bu metodlar boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishda muhim vosita sifatida qo'llanilgan.

Ahmedova S.S. (2024) o'z tadqiqotlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining shaxsiyatini shakllantirishda ma'naviy tarbiyaning o'rne haqida so'z yuritib, axloqiy sifatlarni rivojlantirishda hikoya va suhbat kabi metodlarning samaradorligini ta'kidlagan.

Oxunov I.A. (2024) boshlang'ich sinf o'quvchilarida tashkilotchilik sifatlarini shakllantirishni ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida ko'rib chiqadi va bu jarayonda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilgan.

Rudenko I.Yu. (2024) raqamli iqtisodiyot sharoitida tarbiya jarayonini takomillashtirishda innovatsion yondashuvlar muhimligini ta'kidlaydi. Bu axborotlashgan jamiyatda o'qituvchilarning raqamli savodxonligi va media resurslaridan foydalanish qobiliyatini rivojlantirishni talab qilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirishda boshlang'ich sinf o'qituvchilari hikoya, suhbat, mashq va musobaqa kabi metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarda ijobiy odatlarni shakllantirishga qodir. Ammo axborotlashgan jamiyat sharoitida raqamli resurslardan foydalanish va o'qituvchilarning malakasini oshirish bo'yicha tadqiqotlar hali yetarlicha chuqur emas, bu esa kelgusida tadqiqot uchun muhim yo'nalish hisoblanadi. Demak, oldimizda turgan buyuk va ezgu maqsadlarimiz axborotlashgan huquqiy demokratik davlatni rivojlantirish va fuqorolik jamiyatini qurish, obod va ozod Vatan, erkin va farovon hayotini qurish, mamlakatning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tiborini yuksaltirish uchun, avvalambor barkamol avlod, o'sib-unib kelayotgan farzandlarimizni yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatli insonlar qilib tarbiyalash zarur.

Metodologik asoslari. O'quvchining shaxs sifatida rivojlanish ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishda o'qituvchining faol rolini ta'kidlaydi. Bu yondashuv o'qituvchining o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishini ta'minlaydi. O'quvchilarning yoshiga mos tarbiyaviy usullar qo'llaniladi, masalan, o'yin, suhbat va amaliy faoliyat orqali ma'naviy qadriyatlar singdiriladi. Axborotlashgan jamiyat sharoitida ma'naviy tarbiya jarayoniga raqamli texnologiyalar va ommaviy axborot vositalarining ta'siri muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv axborot oqimlarini boshqarish, salbiy axborotlardan himoya qilish va ijobiy ma'naviy-axloqiy kontentni targ'ib qilishni o'z ichiga oladi. O'qituvchilar axborot xavfsizligi va media savodxonlikni o'rgatish orqali o'quvchilarni zamonaviy muhitga tayyorlaydi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda quyidagi metodlar qo'llaniladi:

Suhbat: O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy qarashlarini shakllantirishda o'qituvchining jonli suhbat muhim vositadir. Suhbat mavzulari ijtimoiy, estetik va

ta'limiy masalalarni qamrab oladi. Masalan, "Vatan tuyg'usi" yoki "Odobnoma" kabi mavzular orqali milliy qadriyatlar targ'ib qilinadi.

Namuna ko'rsatish: O'qituvchining o'zi axloqiy xulq-atvor namunasi bo'lib, o'quvchilarga taqlid qilish uchun ijobiy obraz yaratadi.

Musobaqa: O'quvchilarning faolligi va jamoaviy ruhini oshirish uchun musobaqalar tashkil etiladi. Masalan, "Eng yaxshi sinf" yoki "Ma'naviy tadbirlar" kabi musobaqalar o'quvchilarda mas'uliyat va hamkorlik hissini rivojlantiradi.

Rolli o'yinlar: O'quvchilar turli rollarni o'ynab, ijtimoiy vaziyatlarda to'g'ri xulq-atvor ko'nikmalarini o'rganadi.

Rag'batlantirish: O'quvchilarning ijobiy xatti-harakatlarini maqtash va mukofotlash orqali ularning ma'naviy faolligi oshiriladi.

Ilhomlantiruvchi hikoyalar: Milliy qahramonlar yoki tarixiy shaxslar haqidagi hikoyalar o'quvchilarda vatanparvarlik va axloqiy sifatlarni shakllantiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Axborotlashgan jamiyat sharoitida boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirishning pedagogik imkoniyatlarini o'rganish natijasida bir qator muhim xulosalar olingan. Shu o'rinda ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ayrim kategoriyalari mazmuni ustida to'xtalib o'tish joizdir. Aql-zakovat moddiy va ma'naviy dunyodagi narsa va hodisalarning mohiyat-mazmunini anglash omilidir. Inson o'z aql-zakovati yordamida fan-texnika yutuqlarini, ijtimoiy tajribalarini o'rganib, o'zlashtirib ma'naviy-axloqiy hayotning tub mohiyatini tushunib boradi. Aql-bilimlar yordamida charxlanib qarashlar, tasavvurlar, tajribalarni shakllantiradi. Ularning ijobiy, salbiy tomonlarini anglashga ko'maklashadi. Aqllilik ilm o'rganish orqali takomillashib, insonlarning ongli hayoti va turmush tarzini tashkil etadi. Shuningdek, aql-idrokning tantana qilishini, ishonchga aylanishini ta'minlaydi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yana bir omili xulq-odobdir. Xulq-odob ma'naviy-axloqiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida har bir insonning o'zida yoki jamoa bilan muloqotidagi o'zini tuta bilishda, yurish turishda, xatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan, jamiyatning axloqiy me'yorlaridir.

Xulq-odob bezagi, odob xulq ko'zgusi deydi donishmand xalqimiz. Ular birgalikda yetuklik, ezgulik, insoniylik namunasini tashkil etadi. Xulq-odob aql bilan paydo qilinadi. Ular aqlning suyanchig'i hisoblanadi. Shunga binoan "Odob bozorda sotilmaydi", "Odobsiz aql-aqlsiz odob yo'q", "Odobiy yo'qning aqli yo'q" naqlari xalq o'rtasida keng tarqalgan.

Odob – inson haqida yoqimli taassurot uyg'otadi-gan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida buriilish yasaydigan darajada muhim ahamiyatga ega bo'lgan, milliy urf-odatlariga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi.

Xulq – oila, jamoa, mahalla miqyosida ahamiyatli bo'lgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli darajada ko'zga tashlanadi hamda yaxshilik va yomonlik, mehmondo'stlik kabi ma'naviy axloqiy tamoyilni o'zida namoyon etadi, yoqimli insoniy xatti-harakatlarning majmuidir.

Burch – muhim mezoniy tushuncha. Burch, mohiyatan, jamiyat, davlat va shaxslarga nisbatan muayyan individdagi munosabat, ular oldidagi majburiyat.

Kundalik hayotimizda uchrab turadigan o'zimiz bilib bilmaydigan, ammo ijtimoiy turmushda har doim qo'llashimiz zarur bo'lgan xulq-odob qoidalari mavjud. Ana shu qoidalarini o'z faoliyatiga singdirish uchun o'quvchi shaxsga aniq maqsadga qaratilgan harakat zarur. Oddiy voqeadan buyuk kashfiyotni kashf etish mumkin bo'lmas, ammo oddiy harakat, chiroyli xulq-odob yordamida yirik muvaffaqiyatga erishish mumkin. Shuning uchun o'quvchi xulq-odobiga e'tiborsiz bo'lmasligi kerak. Mayda-chuydalarni ko'zdan qochirmaslik har bir o'quvchida hushyorlikni oshiradi. Xulq-odobda har bir narsa muhim hisoblanadi. Xulq-odob o'quvchilarni qalban bir-birlariga bog'laydigan ruhiy manba hisoblanadi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) boshlang'ich sinf o'quvchilariga ma'naviy tarbiya berishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Interaktiv darslar, multimedia resurslari va raqamli platformalar o'qituvchilarga o'quvchilarning axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda yanada samarali ishlash imkonini beradi. Masalan, axloqiy dilemmalarni muhokama qilish uchun onlayn forumlardan foydalanish o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirdi. Tadqiqot jarayonida aniqlandiki, o'qituvchilarning raqamli savodxonligi va ma'naviy tarbiya bo'yicha maxsus tayyorgarligi uzluksiz

tarbiya jarayonining muvaffaqiyatida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Malaka oshirish kurslarida AKT va ma'naviy tarbiya integratsiyasiga e'tibor berilgan o'qituvchilar o'quvchilarda ijobiy axloqiy xulq-atvorni shakllantirishda yuqori natijalarga erishdilar. Uzlüksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirishda ota-onalar bilan hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Onlayn platformalar orqali ota-onalarni tarbiya jarayoniga jalb qilish (masalan, vebinarlar, virtual uchrashuvlar) o'quvchilarning ma'naviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ota-onalarning faol ishtiroki o'quvchilarning axloqiy qadriyatlarini mustahkamlashga yordam berdi. Raqamli muhitda o'quvchilarning ma'naviy tarbiyaga bo'lgan qiziqishi ortdi. Interaktiv loyihalar va guruhli muhokamalar o'quvchilarda mas'uliyat, hurmat va adolat kabi qadriyatlarning shakllanishiga xizmat qildi. Masalan, virtual guruh loyihalari orqali o'quvchilar o'zaro hamkorlik va empatiya ko'nikmalarini rivojlantirdilar.

Tadqiqot natijalari axborotlashgan jamiyat sharoitida boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirishda katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatdi. Biroq, bir qator muammolar va cheklovlar ham aniqlandi. Ba'zi maktablarda AKT vositalariga kirish cheklanganligi o'qituvchilarning raqamli resurslardan to'liq foydalanishiga to'sqinlik qilmoqda. Bu muammoni hal qilish uchun davlat va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan maktablarni zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash zarur.

O'qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish va ma'naviy tarbiyani AKT bilan integratsiyalash bo'yicha maxsus treninglar tashkil qilish talab etiladi. Ayni paytda, mavjud malaka oshirish kurslari ko'pincha umumiy xarakterga ega bo'lib, maxsus pedagogik yondashuvlarga yetarlicha e'tibor bermaydi. Uzlüksiz ma'naviy tarbiya jarayonining samaradorligini baholash uchun aniq mezonlar va monitoring tizimi ishlab chiqilishi lozim. Hozirgi kunda bu jarayon ko'pincha subyektiv baholarga asoslanadi, bu esa natijalarni tahlil qilishni qiyinlashtirib kelmoqda. Axborotlashgan jamiyatda global madaniyatning ta'siri o'quvchilarning mahalliy axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda muayyan qiyinchiliklar tug'diryapti. O'qituvchilar mahalliy va global qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatni saqlashga alohida e'tibor berishlari zarur.

Axborotlashgan jamiyat sharoitida boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirishda raqamli texnologiyalar va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlab kelmoqda. Raqamli resurslar o'quvchilarning qiziqishini oshirishda va axloqiy muammolarni muhokama qilishda samarali bo'lsa-da, ularning haddan tashqari ko'p qo'llanilishi o'quvchilarning e'tiborini chalg'itishi mumkin. Shu sababli, o'qituvchilar raqamli kontentni sinchkovlik bilan tanlashi va uni darsning maqsadlariga moslashtirishi zarur. Bundan tashqari, internetdagi axborot oqimida noto'g'ri yoki axloqsiz kontentning ta'sirini oldini olish uchun o'qituvchilar va ota-onalarga maxsus ko'nikmalar bo'yicha treninglar kerak. Ma'naviy tarbiyani faqat alohida darslarda emas, balki barcha fanlar doirasida qo'llash o'quvchilarning qadriyatlar tizimini kengaytiradi. Ammo, bu yondashuv o'qituvchilardan yuqori malaka va fanlararo rejalashtirish ko'nikmalarini talab qiladi. O'yinlashtirish strategiyalari o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Biroq, mukofot tizimlari adolatli va shaffof bo'lmasa, o'quvchilar o'rtasida raqobat yoki norozilik yuzaga kelishi mumkin. O'qituvchilar bu tizimlarni sinfning umumiy maqsadlari va individual ehtiyojlariga moslashtirishi kerak. Loyiha asosidagi ta'lim mahalliy qadriyatlar va an'analarni o'quvchilarga singdirishda muhim vosita sifatida ko'rilishi kerak. Bu yondashuv o'quvchilarning o'z jamoalariga hurmatini oshiradi va ularning ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, loyihalar global qadriyatlar bilan muvozanatlashtirilishi lozim, chunki axborotlashgan jamiyatda o'quvchilar turli madaniyatlar bilan ham tanishadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda poklik, halol, iymonli kishining muhim fazilati ekanligini boshlang'ich sinfdanoq bola ongiga tarbiyaviy soat va ma'naviy tadbirlar orqali singdirib borish kerak. Insonning yaxshi va yomon odatlari uning pokligi va halolligiga bog'liq ekanligi tog'risidagi hadis, ertak, hikoya, masallar orqali tushuntirmoq zarur. Axborotlashgan jamiyat sharoitida uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirish boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun katta imkoniyatlar ochadi. Raqamli texnologiyalar, integratsion yondashuv, o'yinlashtirish va ota-onalar bilan hamkorlik o'quvchilarning axloqiy, ijtimoiy va estetik

qadriyatlarini shakllantirishda samarali vositalar sifatida isbotlandi. Axborotlashgan jamiyat sharoitida boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirish nafaqat imkoniyat, balki zaruratdir. O'qituvchilar zamonaviy texnologiyalar, pedagogik mahorat va jamiyat bilan hamkorlik orqali o'quvchilarda mustahkam ma'naviy asoslar yaratishlari mumkin. Bu esa kelajak avlodning axloqiy va ijtimoiy mas'uliyatli shaxslar sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh.M.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.Toshkent –“O‘zbekiston”2017
2. I.A.Karimov Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent –“O‘zbekiston”
3. *Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq”*
4. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni, 2020.
5. To‘rayeva, D. (2022). “Boshlang'ich ta'limda ma'naviy-axloqiy tarbiya”. Toshkent: Fan va texnologiya.
6. Xo‘jayev, F. (2020). *Pedagogika: Nazariya va Amaliyot*. Toshkent: Fan va Texnologiya.
7. To‘rayeva, D. (2022). *Boshlang'ich Ta'limda Ma'naviy Tarbiya*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti.
8. G‘aniyeva, M. (2019). *Axborotlashgan Jamiyatda Ta'limning Roli*. Toshkent: Akademnashr.
9. The content of the development of independent cognitive activity in students through self-assessment N Makhmudova International Bulletin of Applied Science and Technology 3 (3), 215-221
10. Pedagogical bases of assessment in primary education M Nodira Asian Journal of Multidimensional Research 11 (5), 197-207